



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Qobilov Akobir

SamDU 2-bosqich magstranti

BOLTIQBO'YI XALQLARINING O'ZBEKISTON IJTIMOYIY-IQTISODIY HAYOTIDAGI O'RNIGA NAZAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada XX asrning II-yarmida Boltiqbo'yi xalqlarining O'zbekistondagi hayoti, ularning respublika ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rnini masalalari ilmiy adabiyotlar va davriy matbuot materiallari asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-iqtisodiy hayot, Boltiqbo'yi, Leoxard Umidov-Lakuni, Latviya, "Toshkent quruvchisi", "Yulduz" fabrikasi, 1966 yil.

Bugun jahonda globallashtirish jarayoni shiddat bilan rivojlanayotgan sharoitda millatlararo munosabatlarni takomillashtirish eng dolzarb vazifalar qatorida turadi. Chunki bugun millatlarning o'zligini anglash jarayoni globallashtirishning o'tkazayotgan ta'siri natijasida har qachongiga qaraganda ham tez rivojlanmoqda. O'zining nomi bilan ataluvchi davlatlardan uzoqda yashayotgan millat va elatlar vakillari eng zamonaviy axborot vositalari yordamida o'z millatdoshlari, ularning turmush tarzi, taraqqiyot darajasi va muammolari haqida bir zumda zarur ma'lumot olish imkoniyatiga egadirlar. Jahonda ana shunday ko'p millatli mamlakatlar juda ko'p bo'lib, ulardan biri bizning Vatanimizdir. Bugun mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yonma-yon tinch totuv yashab kelmoqda.

Mamlakatimizda yashayotgan har bir millat va elatning bu yerga kelish tarixi, o'ziga xos hayot yo'li mavjuddir. Ana shunday xalqlardan biri Boltiqbo'yi xalqlari (litvaliklar, latishlar va estonlar) dir.



O‘zbekiston hududiga turli tarixiy vaziyat, shart-sharoit natijasida kelib qolgan xalqlar qatorida Boltiqbo‘yi xalqlari – litvaliklar, latviyaliklar va estonlar ham bordir. Ularning O‘zbekistonga ko‘chib kelishi tarixida 1941-1945-yillar alohida ahamiyatli hisoblanadi. Sababi bu vaqtlarda II jahon urushi boshlanishi va Boltiqbo‘yi davlatlarida jangovar harakatlarining olib borilishida edi. Natijada, frontorti hududi bo‘lgan O‘zbekistonga ko‘plab latviyalik, litvalik, estoniyalik oilalar va ularning farzandlari ko‘chirildi. Ko‘chirib keltirilganlarni bag‘rikeng xalqimiz ochiq ko‘ngillilik bilan kutib oldi. Bu haqida o‘sha davr hujjatlari ma’lumot beradi. Xususan, II jahon urushi yillarida latishlarning bu yerga ko‘chib keltirilishi natijasida ularning soni sezilarli darajada ko‘payib, ular O‘zbekiston hududida 1200 kishiga yetgan [1.144].

O‘zbekistonga kelib o‘zbek oilalarida yashab, urushdan keyingi yillarda ham o‘z vataniga qaytmagan, shu yerda muqim qolgan Boltiqbo‘yi xalqlari vakillari ko‘plab kuzatilgan. Ko‘plab yosh bolalar o‘zbek oilasida ulg‘ayib, shu yerni vatani hisoblab hayot kechirganlar. Jumladan, tadqiqotchi R.Xomitov mana shu holat bo‘yicha quyidagi ma’lumotni keltiradi: “1983-yil yozida Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanidagi “SSSRning 60 yilligi” nomli kolxozda kolxozchi, traktorchi Leoxard Umidov-Lakuni uzoq qidiruvdan so‘ng topilgan. Urush yillarida ko‘chirilgan bolalar orasida 11 yoshli eston farzandi Leoxard va uning ukasi ham bor edi. Estoniyadan chiqqan eshelondagi bolalarni dushman qo‘shinlari o‘qqa tutgan. Buning natijasida eshelondagi bolalardan bir nechtasigina omon qolgan va ular O‘zbekistonga keladi. Omon qolganlar orasida Leoxard va uning ukasi Voldemir ham bor edi. Leoxard va uning ukasi Voldemir Buxoroda mahalliy aholi uyida joylashib, shu yerda muqim yashab kelganligi haqida ma’lumot bor [2.101]”. O‘zbek xalqi bu yerga kelgan boshqa millat va elatlar qatorida Boltiqbo‘yi xalqlarini ham o‘z bag‘riga oldi, ular bilan borini baham ko‘rdi, yelkama-yelka turib mehnat qildi. Natijada ular bu yerda tezda o‘z o‘rnini topib ketdi. Buni buqoridagi ma’lumot ham ko‘rsatib turibdi.

Ko‘chirilgan oilalarning farzandlari ta’lim olishlari uchun maktablar tashkil qilindi. Xususan, ko‘chirilganlarning bolalari ta’lim olishlari uchun 1943-yilning mart oyida Toshkent shahri Qodiriy ko‘chasida 7-maktab o‘rnida Litvadan keltirilgan bolalar uchun maxsus uy tashkil etilgan. Shu yerda ularni o‘qitish uchun maxsus maktab ochilgan [3.147]. Xuddi shunday maktab hozirgi Navoiy viloyatida 318-maktabda ham ochilgan. Urush yillarida Boltiqbo‘yi davlatlaridan evakuatsiya qilinganlar hisobiga O‘zbekistonda litvaliklar soni yanada ko‘payadi. Urush paytida o‘zbekistonlik litovslar ham ulkan mamlakatning barcha xalqlari bilan birgalikda fashizmga qarshi kurashdilar. Ulardan uch nafari – Vilenskiy Volfas Leybovich, Poznyak Viktor Genrixovich va Mats Grigoriy Zilmanovichlar “Sovet Ittifoqining Qahramoni” unvoni bilan mukofotlangan [1.149]. Ammo urush tugaganidan keyin ularning aksariyati yana o‘z vatanlariga qaytib ketishdi. Buning natijasida 40-yillarning oxirlarida bu yerda Boltiqbo‘yi aholisi vakillari soni sezilarli darajada kamaydi. Shunday bo‘lsada, ularning ma’lum qismi shu yerda yashab qoldilar.

Boltiqbo‘yi xalqlarining Vatanimiz hududiga ko‘chib kelishining muhim davrlaridan biri 1966-yilda sodir bo‘lgan fojiaadir. 1966-yilda boltiqbo‘yiliklarning O‘zbekistonga ko‘chib kelishlarining muhim sababi, Toshkentda tabiiy ofat – zilzilaning sodir bo‘lishi edi. Mahalliy aholining urush yillarida ko‘rsatgan beg‘araz yordami va uzoq tarixiy davrlar davomida shakllangan do‘stona aloqalari tufayli, o‘z ixtiyorlari bilan Toshkentga ko‘chib kelib shaharni qayta tiklashda boltiqbo‘yiliklar qahramonona mehnat qildilar. Arxiv hujjatlari, davriy nashrlar va hujjatlardagi keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ular zilzila talafotlarini tezroq bartaraf etish, shaharni oldingidanda obod qilish, shahar aholisi



hayotini tiklash ishlarida sobitqadamlik bilan fidoforona mehnat qilganlar. O'sha davrda Latviya KPS ning birinchi kotibi bo'lib ishlagan A.Vossning quyidagi so'zlari diqqatga sazovor: O'zbeklar juda bag'rikeng va mehmondo'st, ayni vaqtda latishlar uchun juda qadrdonlardir. 1966-yil bahor va yozida juda ko'p latish ishchilari, injenerlar, texniklar Toshkentni qayta qurishda beg'araz yordamlashdilar. Latviya yordam poyezdi 1966-yil iyunidan 1967-yil sentabrigacha 280-o'rinli bolalar uyi, uchta aholi turar joylar majmuasini qurib shaharliklarga topshirdilar. 23 ta latviyalik quruvchi maqto'v yorliq va 143 tasi "Toshkent quruvchisi" ko'krak nishonini oldilar. Ustalar "Yulduz" fabrikasining binosini to'laligicha qurib topshirdilar. Toshkent Metropolitenini qurishda ham xizmat qildilar. Shuningdek, o'zbeklar-latishlar do'stlashuvi yanada mustahkamlanib, quruvchilarga o'zbeklar tomonida madaniy kechalar, ikkala xalqlarni yaqinlashtiruvchi tadbirlar tashkil qilingani, bizlarni quvontiradi"[4],-deb ta'kidlagan. Ular to'qqiz ming kvadrat metr uy-joy qurib bergan [1.144].

Albatta, o'sha 1966-yilda Toshkentni vayronaga aylantirgan zilzila oqibatlarini bartaraf etishda sobiq Ittifoq tarkibidagi respublikalar, jumladan, Boltiqbo'yi respublikalari ham O'zbek xalqiga katta yordam ko'rsatdi. Ular bu yerga qayta tiklash ishlariga ko'ngilli bo'lib kelishlari ham xalqimizga nisbatan yuksak hurmat natijasi edi, deb aytishimiz mumkin. Toshkent qurilishida eng jonbozlik ko'rsatganlar orasida ayniqsa Roberto Gasison, yuk ko'taruvchi Yakisa Venusalar [5.] qatorida bo'yoqchi Karolis Shukvayuchis, duradgor Alfonsos Misyavichu, yuk ko'taruvchi Vitas Miskus, haydovchi Dmitriy Dizanov va Alchis Petravichus, qurilish boshlig'i Romantik Yuzenas, arxitektor Litis Tishkuslarning xizmatlari katta bo'lgan [6].

1966-yil Toshkent zilzilasi bartaraf etsishda litvaliklar ham do'stona va beg'araz yordam ko'rsatdilar. O'sha yillari Litva Markaziy Qo'mitasi birinchi kotibi A.Snekchusning "litvalik juda ko'p farzandlarni ikkinchi jahon urushi yillarida o'z bag'riga olgan non shahri va do'stona Toshkentning og'ir kunlarida juda ko'p litvaliklar ixtiyoriy ravishda Toshkentga kelishdi. Ular qisqa davr ichida 100 kv m uy-joyni qurib bitkazdilar" [7]. Litvaliklar jami 300 kvartirali 4 ta ko'p qavatli uy-joy qurib, shahar aholisiga sovg'a qildi [1.49]. Ulardan qurilish boshlig'i Kudryavsev Fedor, bo'yoqchi Yankunas Alfredas, bosh injener Yurgelyonis Ionaslarning xizmatlari katta bo'lgan.

1966-yil estoniyaliklar ham Toshkentdagi qurilish va qayta tiklash ishlarida ishtirok etgan. Shahar aholisining o'sha og'ir kunlarida Estoniya 200 quruvchi yubordi. Ular 16 oy davomida 50 kvartirali ikkita ko'p qavatli uyni qurib shahar aholisiga foydalanishga topshirdi [1.255]. o'sha davrda bir qator orden bilan taqdirlanganlardan bo'yoqchi Vilyaste Malle, quruvchi Begeshev Enver, tom yopuvchi Beletskiy Dmitriy, g'isht teruvchi Reyer Voldemar, g'isht teruvchi Palmits Mixaillarni ko'rsatish mumkin [2.119].

Shunisi ahamiyatliki, bu davrda O'zbekiston hududiga kelgan ko'plab latviyalik, litvalik va estoniyaliklar bu hududda muqim yashab qolib, o'zlarining hayotlarini O'zbekiston bilan bog'laganlar va o'zbeklar bilan yaxshi munosabatga kirisha olgan. Mamlakatimiz ilm-fani, san'ati va texnika rivojida ham xizmatlar qilishgan. Masalan, 1966-yil Toshkent rassomchilik va san'at institutida vilnyuslik mashhur rassom Irena va Yuazas Lipaslar o'qituvchilik qilgani, latviyalik Monfere Esse-Ezinge Toshkent shahrida tibbiyot boshlig'i bo'lganligini ko'rish mumkin [4]. O'zbekistondagi Boltiqbo'yiliklar uchun bu yer ikkinchi Vatan bo'lib qolgan. Ularning muqim yashab qolganligi 1970-yil aholini ro'yxatga olish hujjatlarida aholi tarkibidagi ulushi o'sganligidan ham ma'lum. Masalan, 1970-yil malakat



aholisi umumiy tarkibidagi ulushi 4785 nafarni tashkil etib, erkaklar 3810 kishi, ayollar 975 kishidan iborat bo'lgan [8.129].

Ammo keyingi yillar davomida bu xalqlarning Rossiya hududlari va o'z vatanlariga ko'chib o'tish jarayoni kuzatildi. Shu yillarda o'tkazilgan ro'yxatga olish natijalari ham shuni ko'rsatmoqda. Xususan, 1979-yilda o'tkazilgan ro'yxatga olish yakunida O'zbekiston hududida 1464 nafar latish, 1040 nafar litovs, 1064 nafar eston, 1989-yilda esa 1131 nafar latish, 1628 nafar litovs, 854 nafar eston yashayotganligi qayd qilingan [1.148-150]. Bundan ma'lum bo'ladiki, 1979-yilda jami 3568 nafar Boltiqbo'yi xalqlari yashagan bo'lsa, 1989-yilda ularning soni 3610 nafar bo'lgan. Bu davr oralig'ida litovslarda sezilarli o'sish kuzatilgan bo'lsa, latish va estonlarda, aksincha, kamayish kuzatilgan. Umumiy hisobda ham deyarli o'zgarish yo'q bo'lsada, lekin ayrim oilalarda tug'ilish hisobiga o'sish kuzatilgan, ammo ko'chib ketganlar hisobiga ularning umumiy soni ko'paymagan. Albatta har bir xalqning o'z vataniga qaytishi, u yerda yashashga intilishi bu tabiiy jarayon.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, turli tarixiy davrlarda O'zbekiston hududiga ko'chirib keltirilgan xalqlar orasida Boltiqbo'yi xalqlari ham o'ziga xos o'rin tutadi. XX asrning II-yarmida O'zbekistonda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy vaziyati hamda xalqimiz bilan hamjihatlikda ular o'z o'rinlarini ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarida topib, jamiyatda faol ishtirok etdilar. Bu yerga kelgan Boltiqbo'yi xalqlarining bir qismi keyinchalik o'z ona Vataniga qaytib ketgan bo'lsa, ma'lum qismi shu yerda qolib O'zbekistonni aziz makon sifatida qadrlab yashab kelmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Этнический атлас Узбекистана. - Узбекистан, 2002. - С.144.
2. Хомитов Р. Ўзбекистон ва Латвия, Литва, Эстония ўртасидаги алоқалар янги босқичда. - Т, 2015. 101-б
3. Фозилхўжаев К. Фарзандларни Ўзбекистон бағрига олди. – Т, 1989. 147-б.
4. Комсомол Узбекистана – 1972 г. 5 мая
5. Правда Востока, 1969. 9 мая
6. Экономика и Жизнь. – 1972. №8
7. Правда Востока. – 1972 г. 18 мая
8. Итоги переписи населения 1970 года. – М., 1972 - С.129